

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ESANOV NAZAR AMANTURDIYEVICH

**TERMIZ SHAHRINI IQTISODIY-IJTIMOIIY RIVOJLANTIRISH
MASALALARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по географическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on geographical sciences**

Esanov Nazar Amanturdiyevich

Termiz shahrini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish masalalari 3

Эсанов Назар Амантурдиевич

Вопросы экономического и социального развития города Термеза..... 21

Esanov Nazar Amanturdievich

Issues of economic and social development of the city of Termez 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 46

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

ESANOV NAZAR AMANTURDIYEVICH

**TERMIZ SHAHRINI IQTISODIY-IJTIMOYIY RIVOJLANTIRISH
MASALALARI**

11.00.02 – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya

**GEOGRAFIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Gr200 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdunazarov Xusan Mengliyevich
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Komilova Nilufar Karshibayevna
geografiya fanlari doktori (DSc), professor

Mavlonov Ahmadjon Muhammadovich
geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi Ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2021.Gr.02.07 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil 24-dekabr soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 105-xona, Tel.: (95) 410-20-106, faks: (0366) 239-19-36. E-mail: ik-geografiya2019@mail.ru Samarqand davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№ ____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy, Samarqand davlat universiteti, Bosh bino, 105-xona, Tel.: (95) 410-20-106, faks: (0366) 239-19-36.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "____" _____ kuni tarqatildi
(2024-yil "____" _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.B.Abbasov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, g.f.d., professor

B.A.Meliyev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, g.f.f.d., (PhD), dotsent

Q.S.Yarashev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, g.f.d. (DSc), dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahonning rivojlangan davlatlarida iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili bo'lgan shaharlashuv jarayonlarining yildan yilga ortib borishi kuzatilmoqda. Shaharlarning doimiy ravishda rivojlanishini ta'minlash, shaharlarda yashovchi aholi uchun talablar darajasidagi turmush sharoitlarini yaratish, shahar muammolarini o'rganishning monitoringini yuritish va ularni hal qilishda zamonaviy, innovatsion yondashuv masalalari alohida ahamiyatga ega.

Bugungi kunda dunyoda shaharlar va aholi punktlarining ochiqligi, xavfsizligi, hayotiyliigi va ekologik barqarorligini ta'minlash, iqtisodiy-ijtimoiy sharoitlarni hisobga olgan holda aholi hayoti uchun yanada barqaror, xavfsiz va qulay shahar muhitini yaratish yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, ayniqsa, shaharlarni rivojlantirish va barqarorligiga erishish uchun ular joylashgan hududlarning tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy, demografik va ekologik holatini chuqur o'rganish, tahlil qilish va baholash hamda ilmiy asoslangan, shahar rivojiga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Respublikamizda keyingi yillarda aholi manzilgohlarini barqaror rivojlanishini ta'minlash, qulay infratuzilma sharoitlarini yaratish, hududlarning ijtimoiy-ekologik sharoitlarini yaxshilash, shaharlar bosh rejalarini ishlab chiqish hamda aholi manzilgohalarining geoma'lumotlar bazalarini ishlab chiqish bo'yicha keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "aholi punktlarining shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish tizimini tubdan takomillashtirish va shaharsozlik hujjatlari bilan ta'minlash dasturini ishlab chiqib, amalga oshirish, aholini joylashtirishning bosh sxemasini ishlab chiqish..." vazifalari belgilab berilgan¹. Mazkur vazifalar, ayniqsa, aholi nisbatan siyrak joylashgan Surxondaryo viloyatida aholi manzilgohalarini optimal tashkil etishda va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan chuqur ilmiy-tadqiqotlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmoni, 2019 yil 10 yanvardagi "Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PF-5623-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasining 2019-yil 9-dekabr 2936-III-son "Surxondaryo viloyati Termiz tumanining chegarasini o'zgartirish, Termiz shahrining chegarasini kengaytirish va tasdiqlash to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 17-iyuldagi 195-sonli "2035-yilgacha Termiz shahrining bosh rejasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son farmoni <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

texnologiyalari rivojlanishining I. «**Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish**» ustuvor yo'nalishiga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sonli Farmonida ko'rsatilgan «Hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish» vazifalariga mos yo'nalishda bajarildi. Bundan tashqari ish Termiz davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Shaharlar, shahar aholi manzilgohlarini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish masalalariga oid maxsus (ilmiy) nazariy-uslubiy va amaliy tadqiqotlarni xorij mamlakatlaridagi olimlardan R.Giffinger, G.Hayndlmayer, E.Ariagi, P.Xagget, G.Aleksanderson, J.Shabo, J.Boje Grane, U.Izard, R.Merfi, P.Diego, Shi. Baomin, Vukan R. Vuchich. MDH olimlaridan esa N.N.Baranskiy, G.M.Lappo, D.I.Bogorad, O.A.Konstantinov, V.G.Davidovich, A.P.Buryan, R.M.Kabo, I.M.Maergoyz, V.V.Pokshishevskiy, V.M.Goxman, B.S.Xorev, Y.N.Persik, Y.L.Pivovarov, V.Sh.Djoashvili, N.A.Sluka, L.V.Ivanenko kabi olimlar ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu olimlar tadqiqotlarida shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari geografiyaning ilmiy yo'nalishi sifatida nazariy jihatdan asoslangan, metodologik asoslari ishlab chiqilgan.

O'zbekistonda so'nggi yillarda U.Sultanov, A.Akilov, S.Zokirov, S.Safarov, S.Safayeva kabilar tomonidan shaharlarning iqtisodiy sohalar tarmoqlar tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolari tadqiq etilgan.

O'zbekistonda shaharlar geografiyasi bilan bog'liq masalalar Z.M.Akramov, E.A.Ahmedov, N.V.Smirnov, T.I.Raimov, O.B.Ota-Mirzayev, A.S.Soliyev, A.A.Qayumov, S.Tashtayeva T.N.Mallaboyev, Sh.B.Imomov, Z.A.Raimjonov, Z.T.Abdalova, U.Sultonov, S.Zokirov, M.N.Erdonov, M.Egamberdiyeva, A.Mavlonov, P.R.Qurbonov va B.Musayev, J.Ismatov singari geograf olimlarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Jumladan, A.A.Qayumov tomonidan O'zbekistonda aholi joylashuvi, zichligi, migratsiya jarayonlari o'rganilgan. A. Mavlonov cho'l sharoitida shaharlarning shakllanishi va rivojlanishi muammolarini o'rganish bilan shug'ullangan. B.Musayev Mirzacho'l iqtisodiy rayoni shaharlari rivojlanishi va joylanishining iqtisodiy geografik jihatlari ochib bergan. J.Ismatov O'zbekiston monoshaharlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini tadqiq qilgan. D.K.Zaynutdinova Samarqand shahri misolida shaharlarning ekologik holatini o'rgangan.

Yuqorida nomlari keltirilgan olimlar ishlarida shaharlarning ba'zi-bir jihatlari, masalan shahar aglomeratsiyalari, shaharlarning urboekologik holati mono shaharlar va ularning rivojlanishi singari masalalari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan. Lekin, mazkur ishlarda katta shaharlarni iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan kompleks tadqiq qilish, zamonaviy GAT texnologiyalari yordamida shaharlarning eng kichkina hududiy birliklari-mahallalarning rivojlanish darajasini aniqlash, shahar mahallalarini o'sish nuqtalari va taraqqiyot drayveri bo'yicha guruhlashtirish ishlari amalga oshirilmagan. Mazkur dissertatsiya yuqoridagi tadqiqotlardan mana shu masalalarni o'rganilganligi bilan farqlanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Termiz davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining "Janubiy O'zbekiston iqtisodiyot tarmoqlarini hududiy joylashtirish va rivojlantirish muammolari" mavzusidagi (2017-2022-yillar) ilmiy tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Termiz shahrini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish masalalarini tahlil qilish asosida muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etish, shaharni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Termiz shahri iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining bugungi kundagi holatini tahlil qilish hamda unga ta'sir qiluvchi omillar-iqtisodiyot tarmoqlari hududiy joylashuvi, shahar jamoat transporti va shaharning turizm salohiyatini o'rganish;

shahar iqtisodiy-ijtimoiy sohalarining rivojlanish tendensiyalarini mahallalar darajasida o'rganish, o'sish nuqtalarini belgilash va tegishli mazmundagi mavzuli xaritaning tuzish;

shaharning demografik vaziyati, aholi dinamikasi, migratsiyasi, tug'ilish va o'lim, tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarini eng kichkina ijtimoiy-hududiy birlik-mahallalar darajasida o'rganish va xaritalashtirish;

Termiz shahrining chegaralik va arid hududda joylashganligidan kelib chiqqan holda barqaror iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning strategik yo'nalishlariga oid ilmiy-takliflarni asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Surxondaryo viloyatining ma'muriy markazi Termiz shahri tanlangan.

Tadqiqotning predmeti esa Termiz shahrining hozirgi davrdagi iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi va ekologik holati, shaharni rivojlantirishning zamonaviy yo'llarini o'rganish va aniqlash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada hududiy tahlil, kartografik, tarixiy, statistik, geografik taqqoslash, balans, tizim-tarkib, GAT texnologiyalari kabi tadqiqot metodlardan keng foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Termiz shahri iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining bugungi kundagi holati tahlil qilinishi asosida shaharning zamonaviy rivojlanishini belgilab beruvchi iqtisodiy-geografik omillar (shaharning iqtisodiy-geografik o'rni, aholisi va uning tarkibi, transport salohiyati, ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish infratuzilmasi, turizm salohiyati) asoslangan;

Termiz shahri iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi kompleks-hududiy o'rganilib, kichik hududlar-mahallalar kesimida tahlil qilingan, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari va taraqqiyot drayveri bo'yicha shahar mahallalari guruhlarga ajratilgan;

shaharning geodemografik holati ma'lumotlar bazasi va GAT texnologiyalari asosida yirik masshtabli, turli mavzudagi 8 ta xarita (Termiz shahar aholi zichligi

xaritasi, Termiz shahar mahalalarining taraqqiyot drayveri va o'sish nuqtalari xaritasi, Termiz shahar yer maydonlaridan foydalanish xaritasi, Termiz shahar umum ta'lim va oliy ta'lim muassasalari xaritasi, Termiz shahar sog'liqni saqlash xaritasi, Termiz shahar turistik xaritasi, Termiz shahar hududiy rivojlanishi xaritasi, Termiz shahar atmosfera havosining monitoringi xaritasi) tarkibidan joy olgan "Termiz shahri atlas" ilk bora yaratilgan;

Termiz shahrining chegaralik va arid hududda joylashganligidan kelib chiqqan holda barqaror iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning strategik yo'nalishlari (aholini ish bilan ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorini rivojlantirishda davom etish, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda chet el investitsiyasiga keng yo'l ochib berishda shaharning chegaralik imkoniyatidan foydalanish, transport tarmog'ini va ekologik vaziyatni yaxshilash va shu kabilar) belgilangan hamda ularga oid ilmiy-tashkiliy, iqtisodiy-ijtimoiy chora tadbirlar Termiz shahrining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Termiz shahri iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi kompleks-hududiy o'rganilgan, kichik hududlar-mahallalar kesimida tahlil qilingan hamda, shaharning iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik muammolari aniqlangan;

Termiz shahri va shahar atrofi turizm yo'nalishiga kiritish imkoniyati bor bo'lgan diniy, madaniy va arxeologik meros obyektlarining ro'yxati shakllantirilgan hamda ularning pasporti ishlab chiqilgan;

Termiz shahrini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning yangi yo'nalishlarini belgilashga doir ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi, Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi, Iqtisodiyot va Moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, Termiz shahar Mahalla va nuroniylarni qo'llab quvvatlash bo'limi ma'lumotlari asosida bajarilganligi, shuningdek, tadqiqot doirasida yaratilgan xaritalar, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy ahamiyati Termiz shahri iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining o'ziga xos jihatlari va unga ta'sir qiluvchi omillar xususan shaharning geostrategik o'zni imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif-tavsiyalaridan shaharni yanada rivojlantirish, shahar o'sishi va taraqqiy qilishida kuzatilgan muammolarini hal etishda hamda Yangi O'zbekiston sharoitida Termiz shahrini rivojlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Termiz shahrini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini nazarda tutuvchi huquqiy-me'yoriy hujjatlarni tayyorlash, shaharning o'sish nuqtalari va taraqqiyot drayverini aniqlash hamda, shaharni samarali rivojlantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar majmuini ishlab chiqishda muhim ilmiy manba sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, Surxondaryo

geografiyasi fani bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish, shaharlar geografiyasiga oid darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Termiz shahrini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflar asosida:

Termiz shahri iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining bugungi kundagi holati tahlil qilinishi asosida shaharning zamonaviy rivojlanishini belgilab beruvchi iqtisodiy-geografik omillarni (shaharning iqtisodiy-geografik o'rni, aholisi va uning tarkibi, transport salohiyati, ishlab chiqarish va aholiga xizmat ko'rsatish infratuzilmasi) aniqlash metodikasi "Surxondaryo viloyati geografiyasi (iqtisodiy va ijtimoiy geografiya 2-qism)" nomli o'quv qo'llanmasining mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi 2024-yil 13-mart №02/01-01-26 raqamli ma'lumotnomasi va 509-PO'-022 raqamli guvohnoma). Natijada, talabalarning Surxondaryo viloyati geografiyasi xususan, Termiz shahri iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish haqidagi kompetensiyasini takomillashtirish imkonini bergan;

Termiz shahri iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi kompleks-hududiy o'rganilib, kichik hududlar-mahallalar kesimida tahlil qilingan, iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari va taraqqiyot drayveri bo'yicha shahar mahallalarini guruhlariga ajratish metodikasi "Surxondaryo viloyati geografiyasi (iqtisodiy va ijtimoiy geografiya 2-qism)" nomli o'quv qo'llanmasining mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi 2024-yil 13-mart №02/01-01-26 raqamli ma'lumotnomasi va 509-PO'-022 raqamli guvohnoma). Natijada, talabalarning Termiz shahrini kichik hududlar-mahallalar darajasida o'rganish kompetensiyasini takomillashtirish imkonini bergan;

tarkibiga "Termiz shahar aholi zichligi", "Termiz shahar mahallalarining taraqqiyot drayveri va o'sish nuqtalari", "Termiz shahar yer maydonlaridan foydalanish", "Termiz shahar umum ta'lim va oliy ta'lim muassasalari", "Termiz shahar sog'liqni saqlash", "Termiz shahar turistik xaritasi", "Termiz shahar hududiy rivojlanishi", "Termiz shahar atmosfera havosining monitoringi" xaritalari kiritilgan "Termiz shahri atlas" ilk bor yaratilgan va "Termiz shahri atlas" Iqdisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi tomonidan foydalanish uchun qabul qilingan (Iqdisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi 2024-yil 26-iyul №03/08-7181 raqamli ma'lumotnoma). Natijada, Termiz shahar mahallalar joylashishi, shahar aholisi zichligi, shahar mahallalarining taraqqiyot drayveri va o'sish nuqtalari, shahar yer maydonlaridan foydalanish holati, shahar umum ta'lim, oliy ta'lim, sog'liqni saqlash muassasalari joylashuvi, shaharning diqqatga sazovor turistik obyektlari va shaharining kelgusida hududiy rivojlanish yo'nalishlari, shuningdek, shahar atmosfera havosining monitoringi xususiyatlarini geografik xaritalar yordamida o'rganish imkonini bergan;

Termiz shahrining chegaralik va arid hududda joylashganligidan kelib chiqqan holda barqaror iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning strategik yoʻnalishlarini (aholini ish bilan taʼminlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sektorini rivojlantirishda davom etish, ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda chet el investitsiyasiga keng yoʻl ochib berishda shaharning chegaralik imkoniyatidan foydalanish, transport tarmogʻini va ekologik vaziyatni yaxshilash va shu kabilar) aniqlash hamda ularga oid ilmiy-tashkiliy, iqtisodiy-ijtimoiy chora-tadbirlar haqidagi takliflari “Surxondaryo viloyati geografiyasi (iqtisodiy va ijtimoiy geografiya 2-qism)” nomli oʻquv qoʻllanmasining mazmuniga singdirilgan (Oʻzbekiston oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Oliy taʼlimni rivojlantirish tadqiqotlari markazi 2024-yil 13-mart №02/01-01-26 raqamli maʼlumotnomasi va 509-POʻ-022 raqamli guvohnoma). Natijada talabalarning Termiz shahrini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishning strategik yoʻnalishlari haqidagi kompetensiyasini takomillashtirish imkonini bergan;

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan Oʻzbekiston Respublikasi Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 7 tasi xorijiy nufuzli jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, toʻrtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 165 sahifadan iborat boʻlib, shundan matn qismi 122 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning oʻrganilganlik darajasi, uning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti, metodlari tavsiflangan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Shaharlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishini tadqiq etishning ilmiy-nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida shaharlar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining ilmiy-nazariy masalalari, shaharlar rivojlanish muammolarini geografik oʻrganishning uslubiy asoslari hamda mamlakat va mintaqalar iqtisodiyoti rivojlanishida shaharlarning tutgan oʻrni va roli tadqiq qilingan.

Globalashuvning ta'siri bilan urbanizatsiya jarayonlari tezlasha bormoqda, kichik shaharlar nisbatan kengayib, katta shaharlar tobora yiriklashmoqda. Natijada XXI asrga kelib jahon miqyosida urbanistik vaziyat sur'ati jadallashganligi kuzatildi. Iqtisodiyot tarmoqlarining jadal rivojlanib borishi, ishlab chiqarish sohalarida zamonaviy texnologiyalardan intensiv foydalanish, transport va kommunikatsiyaning yuqori sur'atlarda rivojlanishi, aholi migratsiyasi jarayonlarining dunyo bo'ylab keng ko'rinish olishi va shu kabi boshqa omillar shaharlashuv jarayonlarini tezlashtirib, shahar turmush tarzining qishloq hayotidan keskin farqlanishiga olib kelmoqda.

G'arb davlatlarida shaharlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan jumladan, Vena texnologiya universiteti professori Rudolf Giffinger ishlarida shahar va mintaqaviy rivojlanishning analitik tadqiqotlari shuningdek, shaharning ichki rivojlanishi, shaharlarning yemirilishi, shaharlarning raqobatbardoshligi va strategik rivojlanish yo'nalishlarini tadqiq qilganligini ko'rish mumkin². Albatta R.Giffinger tomonidan taklif qilingan "aqlli shahar" konsepsiyasi ham alohida e'tiborga molik.

Shahar makonini strukturaviy o'rganish muammosi bilan shug'ullangan mualliflar orasida amerikalik olim J. Forresterni alohida ko'rsatish mumkin, u shaharni murakkab, o'z-o'zini tartibga soluvchi tizim sifatida ta'riflagan, uning ichida keskinliklar yuzaga keladi deb hisoblaydi.

Shaharlar bugungi kunda dunyo yalpi ichki mahsulotining 80 foizdan ortig'ini ishlab chiqaradi. Ammo bu yirik iqtisodiy salohiyatning asosiy qismi global shaharlar hissasiga to'g'ri keladi. Dunyo aholisining 20 foizi istiqomat qiluvchi eng yirik 600 ta shahar jahon yalpi ichki mahsulotining 60 foizini ishlab chiqaradi, rivojlangan mamlakatlarda joylashgan 380 ta shaharning YaIMsi 2007 yilda jahon yalpi ichki mahsulotining 50 foizini tashkil etgan³.

Dissertatsiyaning "**Surxondaryo viloyati shaharlarining shakllanishi va rivojlanishining geografik omillari**" deb nomlangan ikkinchi bobida Surxondaryo viloyati shaharlarining shakllanishi va mustaqillik yillarida rivojlanishidagi o'zgarishlar, Termiz shahrini iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishda geografik o'rin va tabiiy sharoitning roli, shaharni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishda demografik omillarning ahamiyati tahlil qilingan.

Viloyatning dastlab tashkil etilgan (1926 yil) qishloq tumanlari Denov, Sariosiyo, Termiz va Sherobod bo'lgan. Bugungi kunda Surxondaryo viloyati tarkibida 14 ta qishloq tumani (Angor, Bandixon, Boysun, Oltinsoy, Muzrabot, Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Qiziriq, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Sho'rchi) (1-jadval), 8 ta shahar-Termiz, Boysun, Denov, Jarqo'rg'on, Qumqo'rg'on, Sharg'un, Sherobod, Sho'rchi va 112 shaharcha hamda 858 ta qishloq aholi punktlari bor.

2 Giffinger, R., Wimmer, H., Kramar, H., Tosics, I. and Szemzö, H., Städtewettbewerb und sozialverträgliche Stadtentwicklung: Stadtentwicklungspolitik am Beispiel von Wien und Budapest; In: Bökemann, D. (ed.) Wiener Beiträge zur Regionalwissenschaft, Bd 18, Wien: Eigenverlag des Instituts für Stadt- und Regionalforschung, 2003.

3 McKinsey Global Institute "Urban World: Mapping the Economic Power City 2020" <https://gtmarket.ru/news/state/2011/03/28/2774> murojaat sanasi 28.03.2023

1-jadval

Surxondaryo viloyati tumanlar kesimida urbanizatsiya darajasi (2022-y.)

№	Hududlar	Shahar aholisi soni ming kishida	Qishloq aholisi soni ming kishida	Shu jumladan tuman umumiy aholisi sonida:		Urbanizatsiya darajasi
				Shahar aholisi ulushi	Qishloq aholisi ulushi	
1	Termiz shahri	189,5		100%		100%
2	Angor	67,0	70,4	48,7%	51,3%	48,7%
3	Boysun	49,7	70,0	41,5%	58,5%	41,5%
4	Oltinsoy	73,4	110,6	39,9%	60,1%	39,9%
5	Muzrabot	54,1	93,0	36,8%	63,2%	36,8%
6	Denov	142,4	257,6	35,6%	64,4%	35,6%
7	Sho‘rchi	76,4	141,5	35%	65%	35%
8	Qumqo‘rg‘on	80,2	163,5	32,3%	67,7%	32,3%
9	Termiz tum.	24,4	55,8	30,4%	69,6%	30,4%
10	Sherabod	60,6	141,4	30%	70%	30%
11	Qiziriq	31,2	87,7	26,2%	73,8	26,2%
12	Uzun	41,7	137,8	23,2%	76,8%	23,2%
13	Jarqo‘rg‘on	46	180,9	20,3%	79,7%	20,3%
14	Sariosiyo	42,3	175,4	19,4%	80,6%	19,4%
15	Bandixon	14,4	64,3	18,3%	81,7%	18,3%
Jami:		993,3	1749,9	36,2%	63,8%	36,2%

Jadval muallif tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma‘lumotlari asosida tuzildi.

Termiz shahrining Markaziy Osiyo va respublikada tutgan transport-geografik o‘rni juda yuqori, jumladan O‘zbekiston uchun janubiy yo‘nalishda Afg‘oniston, Tojikiston, Turkmaniston kabi davlatlar bilan olib boriladigan xalqaro savdo aloqalarining intensiv ekanligi bilan belgilanadi.

Termiz shahar aholisi 2000 yilda 113,5 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa bu ko‘rsatkich 2024 yilga kelib 201,6 ming kishiga yetgan. Kuzatilgan davrda aholining o‘shish surati 1,8 marttaga ortgan. Bugungi kunda Termiz shahrida 37 ta mahalla fuqarolar yig‘ini (MFY) mavjud. Ularning demografik ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda “Bog‘ishamol” va “Guliston” mahallalari eng ko‘p aholiga ega bo‘lib, ularning aholisi mos ravishda 15687 va 13459 kishi. Aholi soni eng kam bo‘lgan “A.Navoiy” va “Farxod” mahallalarni ko‘rsatish mumkin. Ularning aholisi mos ravishda 2394 va 2775 kishi (1-rasm).

Dissertatsiyaning “**Termiz shahri iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida iqtisodiyot tarmoqlarining o‘rni va roli**” deb nomlangan uchinchi bobida shaharning iqtisodiyot tarmoqlari hududiy tarkibi, ularning mustaqillik yillarida shakllanishi va rivojlanishi, shahar taraqqiyotida transport omilining ahamiyati, hudud turistik salohiyatining shaharni rivojlantirishdagi o‘rni shuningdek, shahar mahalla fuqarolar yig‘inlarining iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish darajasi baholangan.

Tadqiqot obyekti sifatida Surxondaryo viloyatining yirik shahri va markazi- Termiz shahri tanlangani ham bejizga emas, albatta. Shahar viloyat miqyosida 2022 yilda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlaridagi ulushi 14,5 foizni tashkil etib Jarqo‘rg‘on tumanidan keyin viloyatda yetakchilardan biri sifatida ajralib turadi.

2023 yil holatiga ko‘ra Termiz shahrida 11614 ta korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda. Taqqoslash uchun bu ko‘rsatkich 2022-yilning mos davrida 10828 ta bo‘lgan va shu davrga nisbatan o‘shirib 107,3 foizni tashkil etadi. Viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarining 18,3 foizi shahar ulushiga to‘g‘ri keladi.

Termiz shahri transport tarmoqlari nafaqat viloyat balki respublika qolaversa, xalqaro ahamiyatga ega. Jumladan Termiz shahrida Termiz xalqaro aeroporti, daryo porti, temir yo‘l vokzali hamda avto shoh bekatlari bilan alohida o‘rin tutib, viloyatning avia tashuvlarining barchasi hudud havo transporti hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Bugungi kunda shahar taraqqiyotida turizm sohasi alohida o‘ringa ega bo‘lib bormoqda. Termiz shahri va unga bevosita yaqin hududlarda Buddaviylik dinining yirik tarixiy makonlari “Zo‘rmola”, islom dini taraqqiyotida hadisshunoslik ilmining yirik namoyondasi Hakim-at-Termiziy ziyoratgohi, “Termiz Saidlari” qabriston ansambili, “Kokildor ota” majmuasi joylashganligi ichki va xalqaro turizmni, hususan diniy turizmni rivojlantirishga keng imkoniyatlar yaratmoqda. Termiz shahriga 2018-yil 42171 kishi turizm maqsadlarida tashrif buyurgan, huddi shu maqsadda 2021-yilda shaharga 504956 kishi yoki 2018-yilga nisbatan 12 marotaba ko‘proq turistlar kelgan (2-jadval).

2-jadval

Termiz shahriga tashrif buyurgan turistlar soni (kishi)

	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil
Termiz shahriga tashrif buyurgan turistlar soni	42171	42048	16485	504956
Shundan				
xorijiy turistlar soni	14051	13598	2717	85307
mahalliy turistlar soni	28120	28450	13768	419649

Jadval muallif tomonidan Surxondaryo viloyati Turizm va madaniy me‘ros bosh boshqarmasi ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

Termiz shahri va shahar atrofi turizm yo‘nalishlariga kiritish imkoniyati bor bo‘lgan madaniy va arxeologik meros obyektlari ularga tashrif buyuruvchilar maqsadiga ko‘ra guruhlashtirildi (3-jadval).

Termiz shahri va shahar atrofi turizm yo‘nalishiga kiritish imkoniyati bor bo‘lgan diniy, madaniy va arxeologik meros obyektlari

DINIY TURIZM OBYEKTALARI		
Islomiy obyektlar	Buddizm obyektlari	Xristian dini obyektlari
Murchbobo maqbara - masjidi, Hakim Termiziy jome masjidi, “Momoxol” masjidi, Chorgumbaz masjidi, Manguzar masjidi, Sulton Saodat majmuasi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Al-Hakim at-Termiziy maqbarasi, Zulkifl maqbarasi, Kokildor xonaqosi	Qoratepa buddizm ibodatxonalar markazi, Zo‘rmola buddaviylik stupasi, Fayoztepa buddaviylik monastiri	Aleksandr Nevskiy pravoslav cherkovi
MADANIY-TARIXIY TURIZM OBYEKTALARI		
Madaniy ko‘ngilochar	Arxeologik	Gastronomik
Termiz zooparki, Viloyat musiqali drama teatri, Viloyat Qo‘g‘irchoq teatri, Viloyat ART galereyasi, Viloyat tarixi va madaniyati Davlat muzeyi, Termiz Arxeologiya muzeyi, Motamsaro ona haykali, Surxon Ipagi muzeyi va hunarmandchilik ustaxonasi, “Gubernator uyi” (Viloyat arxiv binosi)	Termiz shohlar saroyi, Qirqqiz qal’asi, Kaptarxona minorasi, Talitog‘ora yodgorligi, Eski Termiz qal’asi, Chingiztepa yodgorligi, Ayritom yodgorligi	Termiz kemping markazi, Ekoturizm maskani, Mirza tepa
REKREATSIYA TURIZM OBYEKTALARI		
“Termiz Marvaridi” sanatoriyasi, Surxon sanatoriysi, Jayraxona geotermal suv sihatgohi		

Jadval muallif tomonidan Surxondaryo viloyati Turizm va madaniy me‘ros bosh boshqarmasi ma‘lumotlari asosida tayyorlandi.

Termiz shahrining rivojlanishi, uning o‘sish nuqtalari, taraqqiyot drayverlari (ixtisoslashuv sohalari) shahar mahallalari kesimida o‘rganildi va tadqiq qilindi. Aholining asosiy qismi band bo‘lgan yo‘nalishlar o‘rganish natijalariga ko‘ra shahar mahallalarining 11 tasi maishiy xizmat ko‘rsatish, 8 tasi xizmat ko‘rsatish, 5 tasi oziq-ovqat va nooziq ovqat savdosi, 5 tasi issiqxona, 3 tasi tikuvchilik, 2 tasi qoramolchilik, 1 tasi asalarichilik, 1 tasi qandolat va pishiriq, 1 tasi boshqa sohalarga ixtisoslashganligi aniqlangan, mahallalar ushbu yo‘nalishlar bo‘yicha guruhlashtirilgan (2-rasm).

Dissertatsiyaning “**Termiz shahrini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlantirish muammolari va istiqbollari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida Termiz shahri rivojlanishining iqtisodiy-ijtimoiy va ekologik muammolari, shahar iqtisodiyot tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, shaharning ijtimoiy soha tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari tahlil qilingan.

Tadqiqotda Termiz shahrining rivojlanishida kuzatilayotgan ayrim muammolar jumladan, aholi resursidan samarali foydalanish va aholiga xizmat ko‘rsatish sohalari muammolari batafsil ko‘rib chiqilgan. Shahar aholisidan mehnat resurslari nuqtayi nazaridan tahlil qilinganda, jami mehnat resurslari 125,8 ming kishini tashkil etadi. Shundan, 85,6 ming kishi yoki 68,1 foizi iqtisodiy faol, 40,2 ming kishi yoki 31,9 foizi iqtisodiy faol bo‘lmagan aholi. Mehnat resurslarining 0,3 ming kishisi yoki 0,3 foizi ishlayotgan o‘smirlar va nafaqaxo‘rlar. Iqtisodiy faol aholining 15,8 ming kishisi (20,0 foizi) norasmiy sektorda bandlar. Rasmiy ravishda ro‘yxatga olingan ishsizlar 0,1 ming kishi (0,1 foiz), ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo‘lmagan aholi esa 6,9 ming kishini tashkil etadi.

Termiz shahri viloyatning ma'muriy markazi bo'lishiga qaramasdan unda joylashgan aholiga xizmat ko'rsatish infratuzilma obyektlari soni va quvvati shahar aholisiga xizmat ko'rsatish talabiga javob bermaydi. Masalan, shahar umumta'lim maktablari soni 32 ta, ularning quvvati esa 23497 o'rin bo'lib, amalda 35592 nafar o'quvchilar ta'lim olmoqda bu esa 1,5 koeffitsient demakdir. Mazkur muammo shaharda yangi umumta'lim maktablarini qurish lozimligini anglatadi.

Bugungi kunda Termiz shahrida atmosfera havosining ifloslanishi, ekologik holatning yomonlashuvi kuzatilmoqda. Bu jarayonlarning asosiy sabablari sifatida antropogen yuklanishning ortishi, shahar transportining ko'payib borayotganligi, yo'llarda tirbandliklarning so'nggi vaqtlarda ortganligi, shaharning aksariyat mavzellarida olib borilayotgan qurilish ishlari, shuningdek, shaharda mavjud bo'lgan daraxtzorlar kesilishi, maysazorlar va yo'l bo'yidagi yashil hududlarning qisqarishini ko'rsatish mumkin.

Tadqiqot ishida Termiz shahrida atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori ba'zi yillar uchun tahlil qilindi va Surxondaryo viloyatining ba'zi tumanlari ko'rsatkichlari bilan taqqoslandi (4-jadval).

Vohaning janubiy tumanlarida va hususan Termiz shahrida, janubi-g'arbdan esuvchi issiq va shimoli-g'arbdan keluvchi sovuq havo frontining aerodinamik tezlanishidan paydo bo'lgan, janubi-g'arbiy yo'nalish bo'yicha esuvchi, "Afg'on shamoli" nomi bilan ataluvchi shamolning shahar atmosferasiga salbiy ta'siri o'rganildi.

Afg'on shamolining atrof-muhitga salbiy ta'sirini bartaraf etish yuzasidan taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Termiz shahrida ham yurtimizning boshqa hududlarida kuzatilgani singari zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, fan-texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan foydalanib faoliyati yo'lga qo'yilgan, ilmiy-texnik taraqqiyotni ta'minlovchi, yangi sohalarning vujudga kelishiga ayni vaqtda mavjud eski ishlab chiqarish quvvatlarini yangi zamon talabiga moslashtirish, diversifikatsiyalash va mahalliyashtirish amalga oshirilmoqda.

4-jadval

Termiz shahri va Surxondaryo viloyatining ba'zi hududlari bo'yicha atmosferaga chiqarilgan ifloslantiruvchi moddalar miqdori (tonnada)

Hududlar	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
